Ravshanbekov Oybek Rustambek o'g'li	
Yevropa ittifoqi va markaziy osiyo mamlakatlaridagi soliq siyosatining inklyuziv rivojlanishdagi o'rni va omillarining qiyosiy tahlili	837
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li	
Mintaqa turizmini rivojlantirishda raqamli marketing vositalaridan mijozlar qoniqishini kompleks baholash uslubi	846
Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi	
Mintaqaviy eksport samaradorligiga innovatsion yondashuvlarning ta'sir omillarini tadqiq etish	851
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	
Buxoro viloyatida ichki turizmning hozirgi holati va istiqboldagi rivojlanish yo'llari	857
Azimov Otabek Xudayberdievich	
Tashqi bozorlarga integratsiyalashuv jarayonlarining mintqa iqtisodiyotining o'sishga ta'siri bo'yicha qarashlar	862
Ozodova Farida Zarif qizi	
Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashni boshqarish strategiyalari	866
Madaminov Bekzod Allayorovich	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini raqamlashtirishni takomillashtirish metodologiyasi jarayonlari	872
Muxammadov Nodir Karimovich	
O'zbekiston eksport salohiyatini soliqlar yordamida rag'batlantirish	880
Mahmudova Sevara Rahmat qizi	
Yashil moliyalashtirishda moliyaviy instrumentlar	883
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
Сравнительный анализ правовых инструментов контроля трансфертного ценообразования в налоговой, таможенной и антимонопольной сферах	887
Бекзод Умматов	



Yaponiya startap tajribasini O'zbekiston sharoitida tatbiq etish istiqbollari	892
Xazratova Shohsanam Xasanboy qizi	
Рейтинг Республики Узбекистан по индексу развития электронного правительства	898
Умарова Дурдона Абдуманнабовна	
Etnomadaniy turizm tushunchasi va uning mazmun-mohiyati	905
Qilichova Orzigul Zafar qizi	
Пути адаптации международных требований к капиталу в страховом секторе Узбекистана	910
Эргашева Фарангиз Шерзод кизи	
Tijorat banklarida raqobatbardoshlikni belgilovchi omillar va ularning ta'siri tahlili	916
Shamsiyev Nurbek Fazliddin o'g'li	
Tijorat banklarida muammoli investitsion kreditlarning yuzaga kelish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari	921
Melikov Otabek Maxmadaminovich	



TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI INVESTITSION KREDITLARNING YUZAGA KELISH SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI



Melikov Otabek Maxmadaminovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Moliya va bank ishi” kafedrası mudiri.

o.melikov@dtpi.uz

ORCID:0009-0006-1518-4107

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammoli kreditlarning shakllanish sabablari, ularning bank tizimi va iqtisodiyotga ta'siri hamda ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida muammoli kreditlarning asosiy manbalari sifatida loyiha risklarining noto'g'ri baholanishi, makroiqtisodiy beqarorlik, kredit monitoringining sustligi, korporativ boshqaruvdagi kamchiliklar va tashqi qarzlarning ortishi aniqlangan. Shuningdek, xalqaro tajribada qo'llanilayotgan samarali mexanizmlar — kredit portfelini diversifikatsiya qilish, restrukturizatsiya, “bad bank” modeli, davlat kafolatlari va kredit sug'urtasi kabi usullar o'rganilgan. O'zbekiston sharoitida muammoli kreditlarni kamaytirish uchun risk-menejment tizimini kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni tatbiq etish hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, investitsiya, kredit portfelı, muammoli kreditlar, risk-menejment, restrukturizatsiya, “bad bank” modeli, kredit monitoringi, davlat kafolatlari, raqamli texnologiyalar.

Abstract: This article scientifically analyzes the causes of the formation of problem loans in the process of financing investments in commercial banks, their impact on the banking system and the economy, and ways to eliminate them. During the study, the main sources of problem loans were identified as incorrect assessment of project risks, macroeconomic instability, weak credit monitoring, shortcomings in corporate governance, and increased external debt. Also, effective mechanisms used in international experience were studied - such methods as loan portfolio diversification, restructuring, the “bad bank” model, state guarantees, and credit insurance. Practical recommendations were developed to strengthen the risk management system, implement digital technologies, and expand cooperation with international financial institutions to reduce problem loans in the conditions of Uzbekistan.

Key words: Commercial banks, investment, loan portfolio, problem loans, risk management, restructuring, the “bad bank” model, credit monitoring, state guarantees, digital technologies.

Аннотация: В данной статье научно проанализированы причины образования проблемных кредитов в процессе финансирования инвестиций в коммерческих банках, их влияние на банковскую систему и экономику, а также пути их устранения. В ходе исследования были выявлены основные источники проблемных кредитов: некорректная оценка проектных рисков, макроэкономическая нестабильность, слабый кредитный мониторинг, недостатки в корпоративном управлении и возросший внешний долг. Также были изучены эффективные механизмы, используемые в международном опыте, - такие методы, как диверсификация кредитного портфеля, реструктуризация, модель «плохого банка», государственные гарантии и страхование кредитов. Разработаны практические рекомендации по укреплению системы управления рисками, внедрению цифровых технологий и расширению сотрудничества с международными финансовыми институтами для сокращения проблемных кредитов в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: Коммерческие банки, инвестиции, кредитный портфель, проблемные кредиты, управление рисками, реструктуризация, модель «плохого банка», кредитный мониторинг, государственные гарантии, цифровые технологии.



KIRISH

Bozor iqtisodiyotida tijorat banklari nafaqat moliyaviy vositachilik vazifasini bajaradi, balki iqtisodiyotni investitsiyalar bilan ta'minlovchi asosiy manbalardan biri sifatida ham maydonga chiqadi. Bugungi globallashuv davrida investitsion jarayonlarning barqarorligi mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti, ishlab chiqarish hajmining kengayishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi va aholi farovonligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish faoliyati davlatning iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Biroq, investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar, xususan, o'z vaqtida qaytmay qolayotgan investitsion kreditlar masalasi nafaqat alohida tijorat banklari, balki butun moliya tizimi uchun jiddiy tahdid tug'diradi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, muammoli kreditlarning yuqori darajasi moliyaviy sektorning ishonchliligiga putur yetkazadi, investitsion muhitni zaiflashtiradi va iqtisodiy o'sish sur'atlarini keskin pasaytiradi. Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Jahon banki hisobotlariga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarda muammoli kreditlar ulushi ba'zi hollarda 15 foizgacha yetib, iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bank-moliya tizimini isloh qilishga qaratilgan qaror va farmonlarida ham aynan kreditlashning samaradorligini oshirish, muammoli kreditlar hajmini kamaytirish va ularning oldini olish masalalari alohida ta'kidlanmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tijorat banklarida investitsiyalarni moliyalashtirish hisobiga yuzaga keladigan muammoli kreditlarni o'rganish, ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish ilmiy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham dolzarb masalalardan biridir.

Shuningdek, ushbu muammo bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari, investitsiya siyosatining barqarorligi, xalqaro tajriba va milliy bank tizimining rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun tijorat banklarida investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan kredit xavflarini chuqur tahlil qilish va ularni samarali boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning talabidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari faoliyatida investitsiyalarni moliyalashtirish va muammoli kreditlarni bartaraf etish masalalari bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xalqaro miqyosda ushbu sohada R. Levine, J. Stiglitz, F. Mishkin, D. Diamond va P. Dybviglarining ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, R. Levine (2005) moliya tizimining iqtisodiy o'sishga ta'sirini chuqur tahlil qilib, tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan investitsion kreditlash jarayoni iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy vositalardan biri ekanligini ta'kidlaydi.

F. Mishkin (2019) esa bank tizimidagi moliyaviy vositachilik mexanizmlarini o'rgana turib, kredit portfelining sifati va bank nazoratining samaradorligi muammoli kreditlar ulushiga bevosita ta'sir qilishi haqida ilmiy xulosa beradi. D. Diamond va P. Dybvig (1983) tomonidan ishlab chiqilgan klassik "bank ishonchliligi modeli"da esa depozitorlar va qarz oluvchilar o'rtasidagi muvozanatning buzilishi bank tizimida likvidlik inqirozlariga olib kelishi mumkinligi ko'rsatilgan. Bu yondashuv bugungi kunda ham muammoli kreditlarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish mexanizmlarini o'rganishda metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

MDH mamlakatlari miqyosida olib borilgan tadqiqotlarda ham ushbu masala keng yoritilgan. Masalan, A. Kuznetsov (2020) o'z izlanishlarida Rossiya tijorat banklarida muammoli kreditlarning asosiy sababi sifatida makroiqtisodiy beqarorlik, qarzдор korxonalar moliyaviy intizomining pastligi va bank nazoratining sustligini keltiradi. Qozog'istonlik olimlar A. Baimukhametova va T. Seytkaziev (2021) esa muammoli kreditlarni kamaytirishda restrukturizatsiya va "bad bank" modelining samarali ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston olimlari ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratmoqda. Sh. Azizov (2022) tijorat banklarida kredit portfeli boshqaruvining zamonaviy yondashuvlarini o'rganib, muammoli kreditlarni kamaytirishda risk-menejment tizimini kuchaytirish va raqamlashtirish jarayonlarining ahamiyatini ko'rsatib bergan. I. Karimov (2023) esa investitsion loyihalarni moliyalashtirishda due diligence jarayonini joriy qilish zarurligini, shuningdek, loyiha risklarini xalqaro standartlar asosida baholash kreditlarning qaytarilish darajasini sezilarli oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Shu bilan birga, Markaziy bank va Moliya vazirligining so'ngi yillarda e'lon qilingan hisobotlarida muammoli kreditlar hajmini kamaytirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar, xususan, banklarning kapital yetarliligi ko'rsatkichini oshirish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish va kredit monitoringini kuchaytirishga doir chora-tadbirlar yoritilgan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida muammoli kreditlarning oldini olish va ularni bartaraf etish masalasi nazariy va amaliy jihatdan keng o'rganilgan bo'lsa-da, milliy sharoitda xalqaro tajribani chuqur integratsiya qilish, shuningdek, kredit risklarini boshqarishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalari hanuz to'liq ishlab chiqilmagan. Bu esa ushbu tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari iqtisodiyotda investitsion jarayonlarni moliyalashtirish orqali ishlab chiqarish hajmining kengayishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi va aholi turmush darajasining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Biroq investitsion kreditlarning samaradorligi ularning hajmiga emas, balki sifati va qaytish darajasiga bog'liq bo'ladi. Agar kredit portfeli tarkibida muammoli kreditlar ulushi oshsa, bu banklarning moliyaviy barqarorligiga putur yetkazadi, iqtisodiyotning umumiy o'sish sur'atlarini pasaytiradi va investitsion muhitga bo'lgan ishonchni susaytiradi. Shu bois, tijorat banklari faoliyatida muammoli kreditlar masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Muammoli kreditlarning shakllanishiga bir qator omillar sabab bo'ladi. Avvalo, investitsion loyihalarning risklari yetarlicha chuqur baholanmasligi, bozor tahlilining to'liq o'tkazilmasligi va biznes-rejalarning hayotiylik darajasining pastligi kredit mablag'larining samarasiz yo'naltirilishiga olib keladi. Shu bilan birga, mamlakatdagi makroiqtisodiy beqarorlik — inflyatsiya, valyuta kursining o'zgarishi, tashqi bozor kon'yunkturasining keskin tebranishi ham qarzdor korxonalar uchun qo'shimcha moliyaviy yuk bo'lib tushadi. Ko'plab hollarda banklarning kredit ajratilgandan keyin uni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish mexanizmlari sustligi, korxonalardagi korporativ boshqaruvning zaifligi, shaffof moliyaviy hisobot yuritilmasligi va hatto korrupsiya elementlari kreditlarning qaytmasligiga sabab bo'ladi. Natijada, tijorat banklari balansida muammoli kreditlar ulushi ortadi va ularning likvidlik ko'rsatkichlari pasayadi.

Muammoli kreditlarning iqtisodiyotga ta'siri ham bevosita va jiddiydir. Birinchidan, banklarning yangi kreditlar ajratish imkoniyati cheklanadi, bu esa ishlab chiqarish va investitsion faoliyatning sekinlashuviga olib keladi. Ikkinchidan, bank tizimidagi beqarorlik xorijiy investorlarning mamlakatga bo'lgan ishonchini susaytiradi. Uchinchidan, muammoli kreditlarning ortishi davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini talab qiladi, bu esa byudjet xarajatlarini oshiradi va makroiqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, muammoli kreditlar ulushining 10 foizdan oshishi iqtisodiy o'sish sur'atlarini 1,5–2 baravar pasaytiradi.


Shunday sharoitda muammoli kreditlarni bartaraf etish uchun kompleks chora-tadbirlar zarur. Avvalo, kredit ajratilishidan oldin investitsion loyihalarni chuqur tekshirish, bozor tahlilini amalga oshirish va moliyaviy oqimlarni prognozlash orqali risklarni aniq baholash talab etiladi. Kredit portfelini turli tarmoqlar va hududlar bo'yicha diversifikatsiya qilish ham risklarni kamaytirishning muhim omilidir. Muammoli kreditlarni qaytarish uchun restrukturizatsiya mexanizmlaridan foydalanish, ya'ni qarzdorlarga foiz stavkalarini pasaytirish, to'lov muddatlarini cho'zish yoki qayta moliyalashtirish orqali moliyaviy imkoniyat yaratish muhim hisoblanadi. Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun kredit sug'urtasi va davlat kafolatlari tizimini kengaytirish ham banklar zimmasidagi risklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajribada qo'llanilayotgan "bad bank" modeli ham muhim yechimlardan biridir. Unga ko'ra, muammoli kreditlar alohida tashkil etilgan maxsus bankka o'tkazilib, tijorat banklari balanslari "sog'lomlashtiriladi" va ularning investitsion faoliyati davom etishi uchun imkoniyat yaratiladi.

O'zbekiston sharoitida ushbu mexanizmlarning qo'llanishi yanada samarali bo'lishi mumkin. Buning uchun Markaziy bank tomonidan muammoli kreditlarni yagona milliy bazada kuzatish tizimini joriy etish, tijorat banklarida risk-menejment bo'limlarini kuchaytirish va xodimlar malakasini oshirish zarur. Shuningdek, kredit mablag'larining real vaqt rejimida maqsadli ishlatilishini kuzatish imkonini beruvchi raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish muhimdir. Davlat va xususiy sektor hamkorligida restrukturizatsiya jarayonlarini samarali yo'lga qo'yish, xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda muammoli kreditlarni qisqartirish uchun maxsus fondlar tashkil etish ham ijobiy natijalar berishi mumkin.

Demak, tijorat banklarida investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammoli kreditlar ko'plab ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllansa-da, ularni bartaraf etishning samarali mexanizmlari mavjud. Eng muhimi, banklar tomonidan risklarni aniq baholash, monitoringni kuchaytirish va zamonaviy moliyaviy vositalarni qo'llash orqali kredit portfeli sifati oshiriladi, bu esa mamlakat iqtisodiy barqarorligiga va investitsion muhitning jozibadorligiga xizmat qiladi.



Quyidagi diagrammada tijorat banklarida investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida muammoli kreditlarning shakllanishiga sabab bo'ladigan omillar foizlarda taqsimlangan holda keltirilgan:



1-diagramma

- Loyiha risklarining noto'g'ri baholanishi (30%) – muammoli kreditlarning eng asosiy manbai hisoblanadi. Investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi chuqur o'rganilmaganda, kredit mablag'lari maqsadsiz sarflanadi va qaytmaslik xavfi kuchayadi.

- Makroiqtisodiy beqarorlik (25%) – inflyatsiya, milliy valyuta kursidagi tebranishlar, tashqi bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlar qarzidor korxonalar moliyaviy imkoniyatlarini keskin pasaytiradi.

- Bank monitoringining sustligi (20%) – kredit ajratilgandan keyin mablag'larning maqsadli ishlatilishi doimiy nazorat qilinmasa, ular samarasiz yo'nalishlarga sarflanadi.

- Korporativ boshqaruvdagi muammolar (15%) – shaffof moliyaviy hisobotning yo'qligi, korrupsiya va noto'g'ri resurs taqsimoti kreditlarning qaytmasligiga olib keladi.

- Tashqi qarzlarning ortishi (10%) – qarzidor korxonalar tashqi moliyaviy manbalarni ko'paytirgani sari bank tizimiga qo'shimcha xavf tushadi.

Diagramma shuni ko'rsatadiki, muammoli kreditlarning yarmidan ko'pi (55%) bevosita loyiha risklarini noto'g'ri baholash va makroiqtisodiy omillar bilan bog'liqdir. Demak, tijorat banklari uchun eng muhim vazifa — investitsion loyihalarni chuqur tahlil qilish, risklarni to'liq baholash va makroiqtisodiy o'zgarishlarga moslashuvchan strategiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot davomida tijorat banklarida investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammoli kreditlarning asosiy sabablari tahlil qilindi. Jadval va diagramma asosida aniqlanishicha, muammoli kreditlarning yarmidan ko'pi loyiha risklarining noto'g'ri baholanishi hamda makroiqtisodiy beqarorlik omillariga to'g'ri kelmoqda. Bu esa shuni anglatadiki, kredit mablag'larini ajratishdan avval chuqur iqtisodiy va moliyaviy ekspertiza o'tkazish, shuningdek, inflyatsiya va valyuta tebranishlaridan himoyalanih bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zarur.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, banklarning kredit monitoringi va ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirishi muammoli kreditlar hajmini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Xususan, kredit mablag'larining maqsadli ishlatilishini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradigan raqamli texnologiyalar joriy etilganda, kredit portfeli sifati oshishi kutilmoqda. Shuningdek, restrukturalizatsiya mexanizmlaridan foydalanish va davlat kafolatlarini kengaytirish qarzidor korxonalar moliyaviy barqarorligini tiklashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama jarayonida xalqaro tajribaga asoslanib shuni aytish mumkinki, "bad bank" modelini milliy sharoitda tatbiq etish imkoniyatlari ham mavjud. Bu yondashuv muammoli kreditlarni alohida balansga chiqarib, tijorat banklari faoliyatini "sog'lomlashtirish"ga yordam beradi. Biroq, bunday tizimning samarali ishlashi uchun mustahkam huquqiy baza, davlat nazorati va moliyaviy resurslarning yetariligi talab etiladi.

Shuningdek, muhokama jarayonida shuni ham ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar ijobiy natija bermoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra,



oxirgi yillarda muammoli kreditlar ulushi 6–7 foiz atrofida saqlanmoqda. Biroq, iqtisodiy o'sish sur'atlari jadallashgani sari investitsion loyihalarning soni ham ko'paymoqda, bu esa kredit risklarini yanada oshirishi mumkin. Shu sababli, mavjud islohotlarni chuqurlashtirish, risk-menejment tizimini mustahkamlash va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, muammoli kreditlarni bartaraf etishda kompleks yondashuv — ya'ni risklarni to'g'ri baholash, monitoringni kuchaytirish, restrukturizatsiya va sug'urta mexanizmlarini qo'llash hamda davlat-xususiy hamkorlik asosida maxsus dasturlar ishlab chiqish tijorat banklari uchun eng samarali yechim bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarida investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammoli kreditlar bank tizimi barqarorligi va mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, muammoli kreditlarning shakllanishida loyiha risklarini noto'g'ri baholash, makroiqtisodiy beqarorlik, bank monitoringi sustligi hamda korporativ boshqaruvdagi muammolar yetakchi o'rin tutadi. Bu esa investitsion muhitning jozibadorligini kamaytiradi, banklarning likvidligini pasaytiradi va yangi loyihalarning moliyalashtirilishiga to'siq bo'ladi.

Muammoli kreditlarni bartaraf etish uchun tijorat banklari faoliyatida zamonaviy risk-menejment tizimlarini joriy etish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, kredit monitoringini kuchaytirish, restrukturizatsiya mexanizmlaridan foydalanish va kredit sug'urtasini kengaytirish zarur. Shuningdek, xalqaro tajribada qo'llanilgan "bad bank" modeli, davlat kafolatlari hamda raqamli texnologiyalar asosida kreditlarni nazorat qilish amaliyotini milliy sharoitga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sharoitida Markaziy bank tomonidan yagona muammoli kreditlar bazasini yaratish, tijorat banklarida risklarni baholash jarayonlarini xalqaro standartlar asosida yo'lga qo'yish, shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda maxsus fondlar tashkil etish orqali muammoli kreditlarni kamaytirish mumkin. Bunday kompleks yondashuv bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizov Sh. Tijorat banklarida kredit portfeli boshqaruvi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 184 b.
2. Karimov I. Bank tizimida investitsion faoliyat samaradorligi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. – 210 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot. – Toshkent, 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PQ–4702-son qarori. Bank-moliya tizimini isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida.
5. Moliya vazirligi. Muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi. – Toshkent, 2022.
6. Mishkin F. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. – New York: Pearson, 2019. – 712 p.
7. Levine R. Finance and Growth: Theory and Evidence. – Handbook of Economic Growth, 2005. – Vol. 1A. – P. 865–934.
8. Diamond D., Dybvig P. Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity. – Journal of Political Economy, 1983. – Vol. 91, No. 3. – P. 401–419.
9. Kuznetsov A. Bankovskaya sistema Rossii i problemnye kredity. – Moskva: Finansy i statistika, 2020. – 256 s.
10. Baimukhametova A., Seytkaziev T. Problem Loans in Kazakhstan Banking Sector and Their Solutions. – Almaty: Narxoz University Press, 2021. – 143 p.
11. World Bank. Global Financial Development Report. – Washington, D.C., 2023.
12. IMF. Financial Stability Review. – Washington, D.C., 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>